

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**IBRAGIMOV QOBIL TUXTAMISHOVICH**

**UY-JOY QURILISH BOZORIDA KORXONALAR  
RAQOBATBARDOSHLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA  
UNI PROGNOZLASH**

**08.00.06 – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)  
po ekonomicheskim naukam**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic  
sciences**

**Ibragimov Qobil Tuxtamishovich**

Uy-joy qurilish bozorida korxonalar raqobatbardoshligining iqtisodiy-statistik tahlili  
va uni prognozlash .....3

**Ибрагимов Кобил Тухтамишович**

Экономико-статистический анализ конкурентоспособности предприятий на  
рынке жилищного строительства и ее прогнозирования .....23

**Ibragimov Qobil Tuxtamishovich**

Economic and statistical analysis of the competitiveness of enterprises in the housing  
construction market and its forecasting .....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....49

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**IBRAGIMOV QOBIL TUXTAMISHOVICH**

**UY-JOY QURILISH BOZORIDA KORXONALAR  
RAQOBATBARDOSHLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI VA  
UNI PROGNOZLASH**

**08.00.06 – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt2928 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Xatamov Ochildi Qurbonovich</b> iqtisodiyot fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Otajonov Umid Abdullayevich</b> iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor <b>Qosimov Azamat Abdukarimovich</b> iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti</b>

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_: \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62) 224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz)).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62)224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: [arm@urdu.uz](mailto:arm@urdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi № \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.S.Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**T.J.Raximov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

**U.R.Matyakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Uy-joy bozorining bugungi holati va unda bo'layotgan o'zgarishlarni belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri- bu foydalanishga topshirilgan uy-joylar hajmidir. Albatta, uy-joy narxi va fuqarolarni uy-joy bilan ta'minlash ko'p jihatdan taklif hajmiga bog'liq. Jumladan, Yaponiyada uy-joy qurilish bozori ulushi 2022-2026-yillarda YAIM 4,1% ni tashkil qiladi. 2026-yilga borib, mamlakat qurilish mahsuloti 39927,0 milliard iyenga yetishi kutilmoqda<sup>1</sup>. Bu esa o'z navbatida uy-joy qurilish korxonalarini raqobatbardoshligi tahlil qilish va ular faoliyatini optimal tartibga solish ayni damda dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatmoqda.

Jahon iqtisodiyotida uy-joy qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini baholash, raqobatbardoshligini yanada oshirish va ularning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda ehtimoliy xavf-xatarga tayyor turish yuzasidan qator maqsadli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Uy-joy qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini baholash, ularning imkoniyatlarini optimal tartibga solish hamda raqobatbardoshlik parametrlarining muhim omillarini aniqlash, yaqin davrlarda ularga bo'lishi bo'lgan tahdidlar va ularni optimal tartibga solish borasida ekonometrik baholash bo'yicha tadqiqotlar bu boradagi ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda sanoat korxonalarining barqaror raqobatbardoshligini ta'minlash, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va qurilish bozorida xususan, uy-joy qurilish bozorida monopoliyaga yo'l bermaslik, qurilish pudratchi korxonalar faoliyatiga ortiqcha aralashuvning oldini olish, shuningdek korrupsiya hamda nepotizmga yo'l qo'ymaslik, bozorning har tomonlama jozibadorligini ta'minlash iste'molchi va xaridorlarga keng tanlov imkoniyatlarini yaratish, ularning xaq-huquqlarini ta'minlash, aholining uy-joyga ehtiyojmand qatlamiga subsidiya va imtiyozlar berish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shaxsiy mulk daxlsizligini ta'minlash masalalariga samarali va optimal yechim berishga e'tibor qaratmoqda. Yangi qurilayotgan turar-joylar tannarxining sun'iy oshib ketmasligi, aholining ehtiyojmand qatlamini qo'llab-quvvatlash va sifatli mahsulotlardan foydalanilgan holda arzon hamda qulay uy-joylar qurishga keng imkoniyatlar berishni mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qarash mumkin<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yilarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-avgustdagi "Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 23-apreldagi 231-sonli "Qurilish sohasidagi normativ hujjatlarni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, O'zbekiston Respublikasi qurilish

<sup>1</sup> Japan Construction Industry Databook Series - Market Size & Forecast by Value and Volume (area and units), Q2 2023 Update

<sup>2</sup> "Ma'muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2023 yildagi PF-108-son

va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2024-yil 12-martdagi “Ko‘p kvartirali uylarda umumiy mol-mulkni saqlash, undan foydalanish va uni ta‘mirlash hamda ko‘p kvartirali uyga tutash yer uchastkasini obodonlashtirish uchun majburiy badallar yoki to‘lovlarning eng kam miqdorini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 01/2-4-son buyrug‘i hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-iyundagi VMQ-245-son “O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 331-sonli qarori), Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-maydagi “2022-2026-yillarda Surxondaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 245-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Uy-joy qurilish bozorida korxonalar raqobatbardoshligini baholash masalasini xorijiy va MDH olimlaridan Ye.V. Gusev, Ye.A. Ugryumov, I.M. Obonov<sup>3</sup>, D. F. Araslanova<sup>4</sup>, Yu.K. Perskiy, Yu.V. Kataeva<sup>5</sup>, I. V. Knyazeva, Ye. S. Gorevaya, V. S. Kazarjevskaya<sup>6</sup>, N.Kosareva, T.Polidi, A.S.Puzanov<sup>7</sup>, V. A. Goremikin<sup>8</sup> shuningdek, A.Badawy, A.Al-Sakkaf<sup>9</sup>, Moazzam Azeem, Fahim Ullah, Muhammad J. Thaheem, Siddra Qauuum<sup>10</sup> va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida uy-joy qurilishini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy va uni boshqarish tizimini takomillashtirishning ayrim jihatlari mahalliy olimlardan A.N.Asaul, M.A.Ikramov, M.M.Miraxmedov, V.U. Yodgorov, R.I.Nurimbetov, S.K.Salayev, K.S.Tashmuxamedova, M.A.Usmonov,

---

<sup>3</sup> Е.В. Гусев, Е.А. Угрюмов, И.М. Обонов. Оценка конкурентоспособности строительных предприятий на основе организационнотехнических показателей. / Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент», 2013, т. 7, № 3, С.122-127.

<sup>4</sup> Д. Ф. Арасланова. Совершенствование методов оценки конкурентоспособности предприятий на рынке жилищного строительства.: автореф. дис. ... канд. экон. наук., Екатеринбург, 2007.-22 с.

<sup>5</sup> Ю.К. Перский, Ю.В. Катаева. Исследование организационно-продуктовой специфики рынка жилищного строительства. / Вестник Пермского университета, 2010, Экономика, вып. 3(6). С.49-58.

<sup>6</sup> И.В.Князева, Е.С.Горевая, В.С.Казаржевская Анализ состояния конкуренции на рынке жилищного строительства в контексте ключевых трендов // Современная конкуренция. 2024. Т. 18. № 2. С. 5–26.

<sup>7</sup> Н.Б.Косарева, Т.Д.Полиди, А.С.Пузанов Рынок жилищного строительства в России: современное состояние и перспективы развития. *Вопросы экономики*. 2013;(3):109-125.

<sup>8</sup> Горемыкин В. А. Экономика недвижимости: учебник. 3-е изд., перераб. и доп. М.: Дашков и Ко, 2003. 836 с.

<sup>9</sup> A.Badawy, A.Al-Sakkaf. Scrutinizing Competitiveness of Construction Companies Based on an Integrated Multi-Criteria Decision Making Model. *CivilEng* 2022, 3, 850–872. <https://doi.org/10.3390/civileng3040049>  
<https://www.mdpi.com/journal/civileng>

<sup>10</sup> M. Azeem, F Ullah, J.M. Thaheem, S. Qayyum Competitiveness in the construction industry: A contractor’s perspective on barriers to improving the construction industry performance. //Journal of Construction Engineering, Management & Innovation 2020 Volume 3 Issue 3 Pages 193-219 <https://doi.org/10.31462/jcemi.2020.03193219>

I.X.Davletovlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan<sup>11</sup>. Shuningdek, qurilish materiallari sanoati rivojlanishini iqtisodiy-statistik tahlil qilish va ekonometrik modellashtirish masalalari bo'yicha B.E.To'rayev<sup>12</sup>, Sh.A.Dexkanov<sup>13</sup>, Sh.K.Kurbaniyazov<sup>14</sup>lar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bundan tashqari raqobat, raqobat muhiti, raqobatbardoshlikning ilmiy-nazariy asoslari M.E.Porter, R.Fatxutdinov, S. Bukin, S.I.Xolbayev, B.Ruzmetov<sup>15</sup>, B.Z. Xaziaxmetovlar ilmiy ishlaridan o'rganilgan. I.S.Abdullayev<sup>16</sup>, O.Q.Xatamov, X.S. Muhiddinov, A.N. Raximov<sup>17</sup>, B.T. Bayxonov<sup>18</sup> hamda M.D.Zaripova<sup>19</sup> prognozlashtirish masalalari, prognoz kategoriyasi S.K.Xudoyqulov<sup>20</sup>, iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishini prognozlash usullari T.J.Rahimov, D.M.Rasulev, A.A.Almuradov, S.O.Xomidovlar<sup>21</sup> tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Yuqoridagi ilmiy-tadqiqot ishlarida uy-jou qurilish bozorida korxonalar raqobatbardoshligi turli jihatlari o'rganilgan bo'lsada, hudud darajasida uy-joy qurilish korxonalari raqobatbardoshligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib modellashtirish ishlari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Uy-jou qurilish bozorida korxonalar raqobatbardoshligining iqtisodiy-statistik tahlili va uni prognozlash masalalarida hudud aholisining uy-joy bilan ta'minlanganlik

<sup>11</sup> Асаул А.Н., Икрамов М.А., Мирахмедов М.М., Ёдгоров В.У. Экономика недвижимости. Учебник. Т.: Изд-во национальной библиотеки Узбекистана им. А.Навои, 2010.-380 с; Ёдгоров В.У., Бутунов Д.Я. Уй-жой коммунал хўжалиги иқтисодиёти ва бошқаруви. Дарслик. –Тошкент: Noshir, 2012. -400 б.; Нурибметов Р.И., Салаев С.К., Ташмухамедова К.С. Уй-жой қурилиши ҳудудий бозорининг ташкилий-иқтисодий механизмини ривожлантириш стратегияси // Архитектура. Қурилиш. Дизайн Илмий-амалий журнали. №3-4. Издательство ТАСИ. Ташкент, 2016. -119-126 б.; Усмонов М.А. Уй-жой қурилиш бозорида тадбиркорлик фаолияти ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари // Iqtisodiy tadqiqotlar ilmiy elektron jurnali, 2022 yil, 1-son, 91-94 б.; Давлетов И.Х. Социально-экономические проблемы развития жилищного строительства в модернизируемой экономике. - Ташкент: Fan va texnologiya, 2012. – 200 с.

<sup>12</sup> B.E. Turayev Qurilish materiallari sanoati rivojlanishini ekonometrik modellashtirish (Surxondaryo viloyati misolida):iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. Toshkent, -57 b.

<sup>13</sup> Dexkanov Sh.A. Qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Andijon, Andijon davlat universiteti, 2021;

<sup>14</sup> Kurbaniyazov Sh.K. Qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini joriy etish samaradorligi // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2018;

<sup>15</sup> Портер, М. Э. Конкуренция.: Пер. с англ.: Уч. пос.- М.: Издательский дом “Вильямс”. 2001.- 495 с.; Фатхутдинов Р. Конкурентоспособность: экономика, стратегия, управление. М.: ИНФРА-М, 2000.-312 с.; Букин С. Основные элементы конкурентных рынков. – Таганрог. Изд-во ТРТУ, 2008. - 25 с.; Рuzmetov B. Минтақани комплекс ривожлантиришда рақобатбардошлик афзалликларини ўрни // Молодой ученый -2016. № 12.4 (116.4)- С. 57-60.; Б.З. Хазиахметов, А.З. Хазиахметов (2010). Проблемы конкурентоспособности в современной экономике. Сравнительный анализ определений понятия “конкуренция”. Проблемы современной экономики, 1(33).

<sup>16</sup> Абдуллаев И.С. Минтақавий иқтисодий тизимни оптимал тартибга солишининг механизmlарини такомиллаштириш. Иқт. Фан. бўйича док. (DSc) диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2017.- 66 б

<sup>17</sup> Xatamov O.Q., Muhiddinov X.S., Raximov A.N. Ekonometrika asoslari. O'quv qo'llanma. Qarshi. «Intellect» nashriyoti, 2022. – 220 bet.

<sup>18</sup> Байхонов Б.Т. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг тармоқлараро тақсимланишини эконометрик моделлаштириш услубиётини такомиллаштириш. Монография. // Тошкент: “IQTISODIOT”, 2017.-203 б.

<sup>19</sup> M.D. Zaripova. Yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatining statistik tahlili va prognozlashtirish 08.00.06 – Ekonometrika va statistika Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Urganch, 2023.- 68 b.

<sup>20</sup> Xudoyqulov S.K. Prognoz bu - bashoratmi? // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, № 1, yanvar-fevral, 2018-yil.;

<sup>21</sup> Raximov T.J. Iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishini prognozlash usullari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2018-yil; Rasulev D.M., Almuradov A.A., Xomidov S.O. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash. O'quv qo'llanma. - T.: IQTISODIYOT, 2019. - 153 b.

darajasini inobatga olishlik, hududlardagi uy-joylar o'rtacha narxi hamda hajmining prognoz parametrlarini ishlab chiqish shuningdek, sotuv tezligi tahliliga kam e'tibor qaratilgan. Bu esa, mazkur yo'nalishlarda tadqiqot va izlanishlar olib borishni taqozo qiladi hamda tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishi rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Uy-joy qurilish bozorida korxonalar raqobatbardoshligining iqtisodiy statistik tahlili va uni prognozlash" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Uy-joy qurilish bozorida korxonalar raqobatbardoshligining iqtisodiy-statistik tahlili va mazkur soha rivojlanish tendensiyalarini prognozlashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** Uy-joy qurilish bozorida korxonalar raqobatbardoshligini tahlil qilish, ilmiy-uslubiy jihatlari bo'yicha xorij va mahalliy tadqiqotlarni umumlashtirish asosida mualliflik yondashuvini berish;

Uy-joy qurilish korxonalarining raqobatbardoshligi borasida xorij va mahalliy olimlarning izlanishlarini tahlil qilish

Hududdagi uy-joy qurilish korxonalarining iqtisodiy statistik tahlili qilish;

Uy-joy qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Uy-joy qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini baholash usullarini takomillashtirish;

Hududdagi uy-joy qurilish hajmi, narxi va xarajatlari ekonometrik modellarini takomillashtirish hamda prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Surxondaryo viloyatidagi uy-joy qurilish korxonalarini tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** uy-joy qurilish korxonalarini faoliyatida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tarkibiy, tizimli, mantiqiy yondashuvlar, guruhlash, solishtirma tahlil, monografik tahlil, statistik tahlil, klastur usuli, korrelyatsion va regression tahlil, SWOT-tahlil, Binar tanlov, ikki bosqichli baholash tizimi, ekonometrik kabi usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat;

viloyat tumanlari aholisining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini "juda past" ( $10,7-12,0 \text{ m}^2$ ), "past" ( $13,0-15,0 \text{ m}^2$ ) va "qoniqarli" ( $15,0 \text{ m}^2$  dan uqori) baholash uslubiuoti  $\left[\frac{C \cdot ZY}{YD}\right]$  mezoni hisobiga takomillashtirilgan;

uy-joy qurilish korxonalarini raqobatbardoshligini baholashda  $\left[\frac{SH}{T}\right]$  ko'rsatkichini kiritish asosida "birlamchi", "ikkilamchi" va "o'rtacha" sotuv tezligi mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

uy-joy qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini binar tanlov modellar va integral ko'rsatkichlar [ $PM + ICH + KM + MI + ST$ ] uordamida ikki bosqichli baholash tizimi orqali 5 ballik mezonda baholash taklifi ishlab chiqilgan;

Surxondaryo viloyatidagi uy-joy qurilish sanoatini iqtisodiy rivojlantirishning 2024-2029-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Surxondaryo viloyati shahar va tumanlarining aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra guruhlangan;

Uy-joy qurilish korxonalari raqobatbardoshligini baholashda "birlamchi", "ikkilamchi" va "o'rtacha" sotuv tezligi mezonlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslangan

Uy-joy qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini binar modellar va integral ko'rsatkichlar yordamida ikki bosqichli baholash tizimi orqali 5 ballik me'zonda baholash taklifi ishlab chiqilgan;

Surxondaryo viloyatidagi uy-joy qurilish sanoatini iqtisodiy rivojlantirishning 2024-2029-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya tadqiqotida qo'llanilgan usul va yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, o'tkazilgan tadqiqotlarning iqtisodiy-matematik va ekonometrik usullar orqali asoslanganligi, statistik ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligining ma'lumotlariga asoslanganligi, xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilot va idoralar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sifatida hudud tuman va shaharlari uchun aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini baholash uslubiyoti, uy-joy qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini baholashda ko'rsatkichlar tizimiga "sotuv tezligi" tushunchasini kiritish orqali baholash, uy-joy qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini ikki bosqichli baholash uslubiyatini optimallashtirish, 2024-2029-yillarda hudud uchun yangi qurib bitkazilishi lozim bo'lgan uy-joylarning maydoni, ularning o'rtacha narxi va miqdori prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, masalalarining ilmiy-uslubiy jihatlarini boyitish va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'lib, undan Surxondaryo viloyati tuman va shaharlarida aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini baholash, uy-joy qurilish bozorida korxonalar raqobatbardoshligini samarali baholashda yangi "sotuv tezligi" ko'rsatkichidan foydalanish, raqobatbardoshlini baholashning gibrad ikki bosqichli tizimini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, mintaqada uy-joy qurilish sohasining yaqin yillardagi istiqbollarini belgilash, shu bilan birga, oliy o'quv yurtlarida "Mintaqaviy iqtisodiyot", "Investitsiya va investitsion faoliyat", "Investitsiya siyosati", "Ekonometrika asoslari", "Statistika", "Biznes matematika" fanlarining o'quv-uslubiy materiallarini takomillashtirishda qo'llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Surxondaryo viloyati uy-joy qurilish korxonalarini raqobatbardoshligining ekonometrik modellarini tadqiq qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

viloyat tumanlari aholisining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini "juda past" (10,7-12,0 m<sup>2</sup>), "past" (13,0-15,0 m<sup>2</sup>) va "qoniqarli" (15,0 m<sup>2</sup> dan uqori) baholash uslubiuoti bo'yicha taklifi Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 19-fevraldagi "Ko'p kvartirali uylarni ta'mirlash bo'yicha injiniring kompaniyasi" Davlat muassasasini tashkil etish to'g'risida 145-8-0-Q/24 sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 13-maydagi 03-03/977-son ma'lumotnomasi). Taklif hududdagi aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishda muayyan darajada xizmat qilgan;

uy-joy qurilish korxonalari raqobatbardoshligini baholashda  $\left[\frac{SH}{T}\right]$  ko'rsatkichini kiritish asosida "birlamchi", "ikkilamchi" va "o'rtacha" sotuv tezligi mezonlaridan foydalanish bo'yicha taklif Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 19-fevraldagi "Ko'p kvartirali uylarni ta'mirlash bo'yicha injiniring kompaniyasi" Davlat muassasasini tashkil etish to'g'risida 145-8-0-Q/24 sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 13-maydagi 03-03/977-son ma'lumotnomasi). Taklif hududda faoliyat yuritayotgan uy-joy qurilish korxonalari sotuv tezligini 5-7 foiz oshirish imkonini bergan;

uy-joy qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini binar tanlov modellar va integral ko'rsatkichlar  $[PM + ICH + KM + MI + ST]$  yordamida ikki bosqichli baholash tizimi orqali 5 ballik mezonda baholash taklifi Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 19-fevraldagi "Ko'p kvartirali uylarni ta'mirlash bo'yicha injiniring kompaniyasi" Davlat muassasasini tashkil etish to'g'risida 145-8-0-Q/24 sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 13-maydagi 03-03/977-son ma'lumotnomasi). Taklif uy-joy qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini baholashga muayyan darajada xizmat qilgan;

Surxondaryo viloyatidagi uy-joy qurilish sanoatini iqtisodiy rivojlantirishning 2024-2029-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 19-fevraldagi "Ko'p kvartirali uylarni ta'mirlash bo'yicha injiniring kompaniyasi" Davlat muassasasini tashkil etish to'g'risida 145-8-0-Q/24 sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 13-maydagi 03-03/977-son ma'lumotnomasi). Taklif viloyatidagi uy-joy qurilish sanoati istiqbollarni aniqlashga imkon bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 1 tasi xorijiy va 4 tasi mahalliy jurnallarda nashr etilgan.


**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 144 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Uy-joy qurilish bozorida korxonalar raqobatbardoshligining nazariy-uslubiy asoslari”** nomli birinchi bobida iqtisodiyotda uy-joy, bozor hamda tushunchasi, qurilish bozori bo‘yicha ilmiy izlanishlar, ushbu tushunchaning ilmiy-nazariy jihatlarini olimlar izlanishlari asosida umumlashtirilgan. Shuningdek, uy-joy qurilish bozorida raqobatbardoshlik bo‘yicha xorij tajribalari o‘rganilib, uni Surxondaryo viloyatida qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotda uy-joy tushunchasi, unga berilgan berilgan ta’riflar uslubiy jihatlarini o‘rganilib, mualliflik yondashuvlari ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizdagi qurilayotgan uy-joylarni tadqiqotlarimiz asosida quyidagi guruhlarga ajratildi<sup>22</sup>.



**1-rasm. Qurilayotgan uy-joylar tasnifi.**

Aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik masalasi tahlil qilingan. Mamlakatda aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini o‘rganishda M.R. Sadikov ilmiylar izlanish olib borgan<sup>23</sup>. Muallif tomonidan ushbu maqolasida Rossiya federatsiyasining 2000-2014-yillar uchun tahlili qiligan. E.V.Sokolova rivojlangan davlatlarda uy-joy

<sup>22</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>23</sup> Садыков, Р. М. Жилищная обеспеченность населения как фактор социальной устойчивости территорий / Р. М. Садыков. — Текст : непосредственный // Молодой ученый.-2016.- № 14 (118). - С. 612-615. - URL: <https://moluch.ru/archive/118/32569/> (дата обращения: 22.01.2024).

ta'minotini tahlil qilgan<sup>24</sup>. Muallif ushbu maqolada G 7 mamlakatlardagi aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini baholagan. K. Shishkina, E. Kashina, K. Chepeleva va Z. SHemelevalar uy-joyning arzonligini baholashning zamonaviy usullarini tadqiq qilgan<sup>25</sup>.

Surxondaryo viloyati miqyosida 2023-yil bo'yicha tahlil qilinganda esa 1-jadvalni ko'rish mumkin.

Aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblash uchun quyidagi formulani taklif etamiz<sup>26</sup>.

$$UJT = \frac{HUI}{DAS} \quad (1)$$

Bu yerda:  $UJT$  – aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi;

$HUI$  – hududdagi foydalanish mumkin bo'lgan uy-joylarning umumiy miqdori ( $m^2$  hisobida)

$DAS$  – hududdagi doimiy yashaydigan aholi soni (*nafar hisobida*)

2023-yil uchun hududdagi aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini me'yorlashtirishda quyidagi formuladan foydalanildi<sup>27</sup>.

$$X_n = \frac{X - X_{min}}{X_{max} - X_{min}} \quad (2)$$

Hisob-kitob natijalari 1-jadvalda keltirigan.

**1-jadval**

**2023-yil uchun hududagi aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi<sup>28</sup>**

Hudud nomi	Bir nafar aholiga to'g'ri keladigan uy-joy maydoni, kv.m	Meyorlashtirilgan qiymat
<b>Surxondaryo viloyati</b>	13,7	0,(30)
Termiz sh.	14,3	0,(36)
Oltinsoy	13,5	0,(28)
Angor	14,7	0,(40)
Bandixon	14,2	0,(35)
Boysun	15,4	0,(47)
Muzrabot	12,0	0,(13)
Denov	14,1	0,(34)
Jarqo'rg'on	14,7	0,(40)
Qumqo'rg'on	10,7	0
Qiziriq	12,0	0,(13)
Sariosiyo	13,9	0,(32)
Termiz	20,6	1
Uzun	13,2	0,(25)
SHerobod	11,7	0,(10)
SHo'rchi	14,4	0,(37)

<sup>24</sup> Соколова Э. В. Обеспеченность жильем в развитых странах. NovaInfo.Ru - №44, 2016 г. Экономические науки-162-165 с.

<sup>25</sup> Advances in Social Science, Education and Humanities Research, volume 392 Ecological-Socio-Economic Systems: Models of Competition and Cooperation (ESES 2019)

<sup>26</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>27</sup> Vafaei N., Ribeiro R.A., Camarinha-Matos L.M. Normalization Techniques for Multi-Criteria Decision Making: Analytical Hierarchy Process Case Study // 7th Doctoral Conference on Computing, Electrical and Industrial Systems (DoCEIS), Apr 2016, Costa de Caparica, Portugal. pp.261-269

<sup>28</sup> Muallif ishlanmasi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Sherobod, Qiziriq, Qumqo‘rg‘on, Sariosiyo, Uzun hamda Muzrabod tumanlarida aholining uy-joy bilan ta‘minlanganlik darajasini hududning qolgan tumanlariga nisbatan juda past, Termiz shahri, Sho‘rchi, Angor, Bandixon, Boysun, Denov va Jarqo‘rg‘on tumanlarida past va Termiz tumanida qoniqarli deb hisoblasa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Olingan natijalar asosida 2010-2022-yillarda Surxondaryo viloyatida kreditni hisobga olgan holda uy-joy sotib olish imkoniyati indeksini hisoblandi va tumanlarda aholining uy-joy bilan ta‘minlanganlik darajasini o‘rganish hamda ularni optimal tartibga solishga nazariy asoslar berildi.

Hudud aholisining kreditni hisobga olgan holda uy-joy sotib olish imkoniyati indeksini quyidagi (3) formula orqali aniqlangan.

$$KBUS = \frac{\varepsilon \cdot DC \cdot 3}{RMT} \cdot 100 \% \quad (3)$$

Bu yerda: *KBUS* – kreditni hisobga olgan holda uy-joy sotib olish imkoniyati indeksi

$\varepsilon$  –oila daromadining kreditni to‘lashga sarflanishi mumkin bo‘lgan maksimal ulushi (qabul qilingan 0,5);

*DC* – bir nafar aholi uchun to‘g‘ri keladigan oylik daromad (pul birligida);

*RMT* –turar-joy harid qilish uchun ishlatiladigan kredit bo‘yicha oylik to‘lov (pul birligida)

## 2-jadval

### Hudud aholisining uy-joy sotib olish uchun ishlatiladigan kredit bo‘yicha oylik to‘lovini hisoblash

Yillar	Bir kishi uchun oyiga to‘g‘ri keladigan daromad ( <i>DC</i> ) (so‘m)	Uy-joy sotib olish uchun ishlatiladigan kredit bo‘yicha oylik to‘lov ( <i>RMT</i> ) (so‘m)	Kreditni hisobga olgan holda uy-joy sotib olish imkoniyati indeksini ( <i>KBUS</i> )
2017	1 108 795	845 465	1,97
2018	1 351 620	987 465	2,05
2019	1 775 617	1 145 780	2,32
2020	2 100 181	1 412 475	2,23
2021	2 336 746	1 675 465	2,09
2022	2 770 761	1 804 285	1,97
2023	3 277 781	1 958 475	2,12

Dissertatsiya ishining “**Surxondaryo viloyatida uy-joy qurilish korxonalarining hozirgi holati**” nomli ikkinchi bobda 2010-2023-yillarda Surxondaryo viloyatida yangi tashkil etilgan va tugatilgan qurilish korxonalarini mutloq o‘shish, o‘shish sur‘ati, orttirma o‘shish, 1% qo‘shimcha o‘shish qiymati va mutloq jadallashish yoki so‘nish sur‘ati (dona), ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Hududdagi uy-joy qurilish korxonalarini uchun SWOT tahlil(3-jadval) amalga oshirildi.

Shuningdek, 2010-2023-yillarda hududda qurilgan uy-joylarning umumiy maydoni (ming m.kv.) va o‘zgarish dinamikasi ko‘rsatkichlari hamda 2017-2023-yillarda hududdagi qurilgan uy-joylar 1 m<sup>2</sup> ning o‘rtacha narxi bo‘yicha tahlillar olib borildi. 2024-2029-yillar uchun uy-joylar maydoni prognoz qiymatlari (ming kv.m), qurilishi rejalashtirilayotgan uy-joylarning o‘rtacha narxi prognoz qiymatlari (mln. so‘m), uy-joy qurilishi hajmi prognoz qiymatlari (mlrd. so‘m) hisoblab chiqildi.

Hududdagi uy joy qurilish korxonalari uchun SWOT tahlili<sup>29</sup>

S- KUCHLI TOMONLAR	W- ZAIF TOMONLAR
<ul style="list-style-type: none"> <li>Uy-joy qurilish sohasini rivojlantirish bo'yicha hukumat tomonidan dasturlarning uzoq muddatga ishlab chiqilganligi va amal qilinishi:</li> <li>Uy-joy qurilish sohasida meyoriy-huquqiy zaminning yaratilganligi:</li> <li>Uy-joy qurilish tarmog'ida ishchi kuchining ta'siri:</li> <li>Uy-joylar qurilishida arzon va sifatli xom-ashyolarni ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Kadrlar malakasining talabga javob bermasligi:</li> <li>Uy-joylar qurilish subyektlarining istiqbolli rejalarining asossiz tuzilganligi:</li> <li>Ayrim qurilish korxonalarining maxsus texnikalar resurslarining cheklanganligi:</li> <li>Potensial xaridorlar istagi va ularning ehtimoliy sonini shakllantirish bo'yicha yetarli axborotga ega emasligi:</li> <li>Ilmiy-texnika taraqqiyoti yangiliklaridan o'z vaqtida foydalanmasligi.</li> </ul>
O- IMKONIYATLAR	T- TAHDIDLAR
<ul style="list-style-type: none"> <li>To'lovga qodir investorlarning sohaga investitsiya kiritish istagining mavjudligi:</li> <li>Uy-joylar qurilish sohasi subyektlariga hukumat tomonidan ustuvor vazifalar belgilanishi:</li> <li>Aholining uy-joylarga nisbatan talabining mavjudligi:</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Yangi qurilayotgan uy-joylarga qo'yilgan ta'riflarning narxlarning va foiz stavkalarining barqaror emasligi va yuqoriligi:</li> <li>Ayrim yangi massivlarning tuman markazlaridan uzoqligi va komunal xizmatlari sifatining pastligi:</li> <li>Mavsumiy, iqlim va demografik vaziyatning o'zgaruvchanligi</li> </ul>

Hudud uy-joy qurilish hajmining 2024-2029-yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlarini aniqlash uchun ARIMA modellari qo'llanildi. Modelning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

Modelning matematik ko'rinishi esa:

$$\Delta^d y_t = c + \sum_{i=1}^p \alpha_i \Delta^d y_{t-1} + \sum_{i=1}^p \beta_i \cdot \varepsilon_{t-j} + \varepsilon_t^{30} \quad (4)$$

Bu yerda  $c$ ,  $\alpha_i$ ,  $\beta_i$  – model parametrlari,  $\Delta^d$  –  $d$  tartibli operatorlar farqi. Endi modelni parametrlash bosqichiga o'tamiz (4-jadval).

ARIMA modelini identifikatsiyalash natijalari<sup>31</sup>.

Model 1: ARIMA, ispolzovaniy nablyudeniya 2011-2022 (T = 12)				
Zavisimaya peremennaya: (1-L) Uy-joy m kv				
Standartnye oshibki rasschitaniy na osnove Gessiana				
	Koeffitsient	St. oshibka	z	p-znachenie
Const	37,9910	15,6560	2,427	0,0152 **
phi_1	-0,368505	0,254703	-1,447	0,1480
Srednee zavis. peremen	36,82500	St. otkl. zavis. perem		82,36439
Srednee innovatsiy	-0,563694	St. otkl. innovatsiy		72,47891
R-kvadrat	0,661952	Isprav. R-kvadrat		0,661952
Log. pravdopodobie	-68,49978	Krit. Akaike		142,9996
Krit. Shvartsa	144,4543	Krit. Xennana-Kuinna		142,4610
	<i>Deystvitelnaya chast</i>	<i>Mnimaya chast</i>	<i>Modul</i>	<i>Chastota</i>
AR				
Koren 1	-2,7137	0,0000	2,7137	0,5000

<sup>29</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>30</sup> Turaev B.E. ARIMA modeli yordamida qurilish ishlari hajmini prognoz qilish (Surxondaryo viloyatida misolida). "UzBridge" elektron jurnali. I – son iyun, 2021-yil 74 – 84 sahifalar

<sup>31</sup> Muallif ishlanmasi

5-jadvaldan  $R^2 \approx 0,66$  qiymatini qabul qildi. Ushbu qiymat model sifati o'rtacha ekanligini bildirsada,  $\varphi$  statistik ahamiyatga ega emas. Shu sababli modelning boshqa tartiblari sinab ko'rilishi maqsadga muvofiq. Tadqiqot doirasida modelning bir necha tartibi sinab ko'rildi va natijada  $p = 2$ ,  $d = 2$  va  $q = 0$  tartibli model tanlab olindi. Regression tahlil natijalari quyidagi 5-jadvalda berilgan.

**5-jadval**

**Regression tahlil natijalari<sup>32</sup>.**

Model 2: ARIMA, ispolzovani nablyudeniya 2012-2022 (T = 11)					
Zavisimaya peremennaya: (1-L)^2 Uyjoymkv					
Standartnye oshibki rasschitani na osnove Gessiana					
	Koeffitsient	St. oshibka	z	p-znachenie	
phi_1	-1,02964	0,225219	-4,572	<0,0001	***
phi_2	-0,604253	0,206668	-2,924	0,0035	***
Srednee zavis. peremen	-0,609091	St. otkl. zavis. perem		143,6619	
Srednee innovatsiy	7,389629	St. otkl. innovatsiy		79,38134	
R-kvadrat	0,505645	Isprav. R-kvadrat		0,450717	
Log. pravdopodobie	-64,44500	Krit. Akaike		134,8900	
Krit. Shvartsa	136,0837	Krit. Xennana-Kuinna		134,1375	
	<i>Deystvitelnaya chast</i>	<i>Mnimaya chast</i>	<i>Modul</i>	<i>Chastota</i>	
AR					
Koren 1	-0,8520	-0,9639	1,2864	-0,3652	
Koren 2	-0,8520	0,9639	1,2864	0,3652	

Modelning approksimatsiya xatoligi esa 2-rasmda tasvirlanganidek 5,18% ga teng.

	Uyjoymkv	расчетные	остатки
2012	968,1	920,5	47,6
2013	1034,3	1016,1	18,2
2014	1022,4	1081,3	-58,9
2015	1147,5	1107,3	40,2
2016	1154,0	1178,7	-24,7
2017	1013,8	1199,8	-186,0
2018	1133,1	1096,3	36,8
2019	1072,9	1073,9	-1,0
2020	1185,5	1040,7	144,8
2021	1292,6	1228,6	64,0
2022	1301,3	1300,9	0,4

Статистика для оценки прогноза использовано наблюдений - 11.

Средняя ошибка (ME)	7,3896
Корень из средней квадратичной ошибки (RMSE)	79,381
Средняя абсолютная ошибка (MAE)	56,599
Средняя процентная ошибка (MPE)	0,38849
Средняя абсолютная процентная ошибка (MAPE)	5,1787
U-статистика Тейла (Theil's U)	0,87573


**2-rasm. Modelning approksimatsiya xatoligi<sup>33</sup>**

Yuqoridagi tahlillar asosida model iqtisodiy jarayonlarga mos va undan foydalanish mumkin deb hisoblasak bo'ladi. Endi tuzilgan modeldan foydalanib,

<sup>32</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>33</sup> Muallif ishlanmasi

2024-2029-yillar uchun quriladigan uy-joylar umumiy maydonining prognoz qiymatlar ishlab chiqamiz.



**3-rasm. Quriladigan uy-joylar maydonining prognoz qiymatlari(ming kv.m) chizmasi<sup>34</sup>.**

Rasmdan foydalanib, 2010-2023-yillar uchun qurilgan uy-joylarning haqiqiy va 2024-2029-yillarda quriladigan uy-joylarning prognoz qiymatlarini ishlab chiqish mumkin. 6-jadvalda 95 % aniqlikda ushbu qiymatlar keltirilgan.

**6-jadval**

**Uy-joylarning 2010-2023-yillar uchun qurilgan va 2024-2029-yillar uchun qurilishi kutilayotgan prognoz qiymati<sup>35</sup>**

Yillar	Qurilgan uy-joylarning maydoni (ming kv.m) haqiqiy qiymatlari	Nazariy qiymatlari	Standart xato	95% ishonch intervalining yuqori chegarasi	95% ishonch intervalining quyi chegarasi
2010	859,4				
2011	874,8				
2012	968,1	920,5			
2013	1034,3	1016,1			
2014	1022,4	1081,3			
2015	1147,5	1107,3			
2016	1154,0	1178,7			
2017	1013,8	1199,8			
2018	1133,1	1096,3			
2019	1072,9	1073,9			
2020	1185,5	1040,7			
2021	1292,6	1228,6			
2022	1301,3	1300,9			
2023		1414,6	79,38	1259,1	-1570,2
2024		1479,7	110,61	1262,9	1696,5
2025		1531,2	156,61	1224,3	1838,2
2026		1625,9	221,63	1191,5	2060,3
2027		1684,3	278,38	1138,7	2229,9
2028		1754,0	347,56	1072,8	2435,2
2029		1833,9	422,16	1006,5	2661,4

<sup>34</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>35</sup> Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Navbatdagi bosqichda esa qurilgan uy-joylarning o‘rtacha  $1\text{ m}^2$  narxini trend tenglamalari yordamida modellashtiramiz. Modelning umumiy ko‘rinishi quyidagicha bo‘ldi:

$$y = 2431 \cdot e^{0,1267t} \quad (5)$$

2024-2029-yillar uchun hududda qurilgan uy-joylar  $1\text{ m}^2$  ning o‘rtacha narxi prognoz qiymatlari ishlab chiqildi.

**7-jadval**

**Hududda qurilgan uy-joylarning  $1\text{ m}^2$  o‘rtacha narxi prognoz qiymatlari(ming so‘m hisobida)<sup>36</sup>.**

Yillar	t	O‘rtacha narx	Yillar	t	O‘rtacha narx
2017	1	2643,031	2024	8	6879,585
2018	2	3030,077	2025	9	7887,033
2019	3	3473,802	2026	10	9042,012
2020	4	3982,507	2027	11	10366,13
2021	5	4565,706	2028	12	11884,15
2022	6	5234,309	2029	13	13624,46
2023	7	6000,823			

2017-2022-yillarda qurilgan uy-joylarning  $1\text{ m}^2$  ning o‘rtacha narxi va 2024-2029-yillar uchun prognoz qiymatlarini umumiy jadvalda birlashtiraylik. Ushbu qiymatlar, approksimatsiya xatoligi 8-jadvalda keltirildi.

**8-jadval**

**Hududdagi uy-joylar  $1\text{ m}^2$  ning o‘rtacha narxi va prognozi<sup>37</sup>**

Yillar	Y o‘rtacha narx (ming so‘m)	O‘rtacha narxning prognoz qiymatlari	MAPE approksimatsiya xatoligi
2017	2900	2643,031	0,08861
2018	3100	3030,077	0,022556
2019	3400	3473,802	0,021707
